



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

15-1800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,  
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022-yil 31-mart

Yaypan shahri

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

- 1.Loyihaning turi : Shartnoma.**
- 2.Loyihaning nomi: Mahsulot yetkazib berish shartnomasi.**
- 3.Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: O'zbekiston tumani Xalq ta'limi bo'limi.**
- 4.Loyiha yuzasidan ma'lumot:**

O'zbekiston tumani Xalq ta'limi bo'limi va "AVTOHAMKOR YAYPAN" MChJ o'rtasida 41 qatnov kuniga 45-umumiy o'rta ta'lim maktab uchun har bir kunga 185.000 (bir yuz sakson besh ming) so'm, 48, 57-umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 285.000 (ikki yuz sakson besh ming) so'm umumiy bahosi 30.955.000 (o'ttiz million to'qqiz yuz ellik besh ming) so'm bo'lgan maktablar o'quvchilarni tashish xizmati ko'rsatish shartnomasi loyihasi huquqiy xulosa olish uchun taqdim qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo'jalik shartnomalarining subyektlari (taraflari) bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining [www.stats.uz](http://www.stats.uz) rasmiy saytidan olingan ma'limotga asosan "AVTOHAMKOR YAYPAN" MChJ 2006-yil 3-mayda tuman hokimiyatidan 352-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni

92 ТИЗИМИ ОРҚАЛИ ЭҒРИ БИДАН ТАСДИҚЛАНГАН, ХУҲЖАТ КОДИ: UL41U2454ZZ3.  
nazarda tutishi kerak. Shartnoma loyihasida mazkur Qonun talablariga amal qilingan holda mazkur shartlar nazarda tutilgan.

Fuqarolik kodeksining 108-moddasiga asosan yuridik shaxslarning o'zaro bitimlari oddiy yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Taqdim etilgan shartnoma oddiy yozma shaklda tuzilgan. Shartnomaga shartnoma tuzish vakolati bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonunining 56-moddasi birinchi qismiga ko'ra, eng yaxshi takliflarni tanlash vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Mazkur Qonunning 62-moddasi birinchi qismida "Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi." deb belgilangan.

O'zbekiston tumani Xalq ta'limi bo'limi xarid komissiyasining 2022-yil 25-martdagi 52754-sonli bayonnomasiga asosan 45,48 va 57-umumiy o'rta ta'lim maktablariga transport xizmati ko'rsatish yuzasidan o'tkazilgan tanlovda "AVTOHAMKOR YAYPAN" MChJ tanlov g'olibi deb belgilangan.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasi birinchi qismiga asosan tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

Qonunning 62-moddasi sakkizinchi qismiga ko'ra tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

Taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib, yuqoridagilarga asosanlangan holda

### XULOSA QILAMAN:

O'zbekiston tumani Xalq ta'limi bo'limi va "AVTOHAMKOR YAYPAN" MChJ o'rtasida 41 qatnov kuniga 45-umumiy o'rta ta'lim maktab uchun har bir kunga 185.000 (bir yuz sakson besh ming) so'm, 48, 57-umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 285.000 (ikki yuz sakson besh ming) so'm umumiy bahosi 30.955.000 (o'ttiz million to'qqiz yuz ellik besh ming) so'm bo'lgan maktablar o'quvchilarni tashish xizmati ko'rsatish shartnomasi loyihasi amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisoblanadi.



«31» 03 2022йил

«Автохамкор Яйпан» М Ч Ж бундан буён «Хизмат курсатувчи» деб аталувчи номидан М Ч Ж раҳбари М.Юдошев бир томондан Ўзбекистон тумани Халқ таълими булими бундан буён «Буюртмачи» деб аталувчи номидан мудири Н.Сиддикова иккинчи томондан куйидагилар тўғрисида ушбу шартномани туздилар.

### I. ШАРТНОМАНИНГ ПРЕДМЕТИ

1.1 «Хизмат курсатувчи» тумандаги узок худудларда жойлашган кишлоқлардан мактабларга укувчиларни ташиш, «Буюртмачи» эса уларга катнов графигини бериш ва хақини ушбу шартномада белгиланган муддатларда тўлаш мажбуриятини олади. Хизмат курсатувчи Комилчул кишлогидан 7-мактабга болаларни олиб келади ва олиб кетади.

1.2 Хизмат курсатиш кунлари ва нархи шартнома тарафлари томонидан келишилади, юк хатлари ва катнов графигида курсатилади.

№	Хизмат тури	Катнов куни	Бир кунлик катнов суммаси	Суммаси
1	Транспорт хизмати 45-мактаб	41	185 000	7 585 000
2	Транспорт хизмати 48-мактаб	41	285 000	11 685 000
3	Транспорт хизмати 57-мактаб	41	285 000	11 685 000
	жами			30 955 000

### II. ХИЗМАТ КУРСАТИШ МУДДАТИ ВА ТАРТИБИ

2.1 «Хизмат курсатувчи» укувчиларни ташиш учун хар куни соат 7.00 дан 16.00 га кадар «Буюртмачи» берган графиги асосида укувчиларга хизмат курсатади.

### III. ТУЛОВ ТАРТИБИ

3.1 «Хизмат курсатувчи» хар бир бажарилган иш куни учун «Буюртмачи»га 45-мактаб учун 1 кунлик катновга 185 000  
48-мактабга 1 кунлик катновага 285 000  
57-мактаб учун 1 кунлик катновга 285 000 сум тулайди.

3.2 Пул хар ойнинг 30-31 кунлари «Буюртмачи» томонидан «Хизмат курсатувчи» хисоб ракамига утказиб берилади.

3.3 Шартноманинг умумий суммаси 30 955 000(уттиз миллион туккиз юз эллик беш минг сум)

3.4 Шартноманинг микдорининг 30% ни «Буюртмачи» томонидан «Хизмат курсатувчи» га олдиндан хак тулайди.

3.5 Шартнома Газначилик булимида тегишли тартибда руйхатдан утгандан кейин хакикий хисобланади ва туловлар амалга оширилади.

### IV. ТОМОНЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ

4.1 «Буюртмачи» катнов кунлари графигини олдиндан «Хизмат курсатувчи» га беради

4.2 «Хизмат курсатувчи» машинани ёкилги хамда эхтиёт кисмлар билан таъминлайди.

4.3 «Хизмат курсатувчи» шофёри машинаси ни техник холатини куздан кечириб йул харакати хавфсизлиги коидаларига амал килиш, укувчиларни хавфсизлигини таминлаш га, укувчиларни уз вактида олиб келиш ва уз вактида уйларига олиб бориб куйиш вазифаси юклатилади.

4.4 Ушбу ишларни хаммаси укувчиларни укишга яъни мактабга келиш кунлари бажарилади.

### V. НИЗОЛАРНИ ХАЛ КИЛИШ

5.1 Ушбу шартнома буйича келишмовчиликлар ва низолар узаро музокаралар йули билан хал килинади.

5.2 Тарафларнинг келишуви билан хал килиб булмайдиган низолар Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатларида белгиланган тартибда хужалик судлари оркали хал килинади

## VI. ШАРТНОМАНИ АМАЛ КИЛИШ МУДДАТИ

6.1 «\_31»03\_2022 йилдан  
«31» 12 2022 йилгача

## VII. ФОРС МАЖОР

### VIII.

7.1 Табиий офатлар туфайли мажбуриятлар бажарилмаган тақдирда моддий жавобгарликдан озод қилинади .

## IX. БОШКА ШАРТЛАР

### X.

8.1 Ушбу шартномага қирмаган барча узғаришлар ва қушимчалар фақат иккала томондан ёзма равишда тузилиб имзо қуйилиб тасдиқлангандан кейин юридик кучга ега бўлади.

## XI. ТОМОНЛАРНИНГ ЮРИДИК МАНЗИЛИ

«Автохамкор Яйпан» МЧЖ  
( Хизмат курсатувчи номи)  
Адрес : Яйпан шаҳри Жангир кишлоғи

Банк номи: Миллий банк қўкон филиали

Х.р : 20208000904500566001

МФО: 00545 инн: 206503764

Рахбар: М.Юлдошев



Ўзбекистон тумани Халқ таълими бўлими  
( бюджетдан маблағ олувчи номи )

Адрес ; Ўзбекистон тумани Яйпан шаҳар  
Х.р 100022860302307092100075071

Оконх: 97600 инн 200189130

Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги  
Газначилиги

Банк номи : Марказий банк

Х.р: 23402000300100001010

МФО: 00014 инн: 201122919



Рахбар: \_\_\_\_\_ Н.Сиддикова